

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxonqir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA OLIISH SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

GRADUAL DEVELOPMENT OF THE ADOPTION INSTITUTE

Begimova Nasiba Khudaiberdievna,
Independent researcher at the law
enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
E-mail: nasiba.begimova@gmail.com

Abstract. The article is devoted to the study of the history of the development of the institution of adoption step by step, along with the specific characteristics of each period. This article examines the history of the development of the institution of adoption, the period of its formation as an institution, as well as its differences and similarities with the institution that exists today.

Keywords: adoption, adopter, adopted child, "Avesta", Hammurabi laws, Islamic history, Family Code of the Republic of Uzbekistan, Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan.

FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI

Begimova Nasiba Xudayberdievna,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqola farzandlikka olish institutining rivojlanish tarixini bosqichma - bosqich, har bir davrni o'ziga xos xususiyatlari bilan birga o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu maqolada tadqiqot mavzusi farzandlikka olish institutini rivojlanish tarixini bosqichlarga bo'lib o'rganish orqali institut sifatida shakllangan davri hamda hozirgi kunda mavjud bo'lgan institut bilan farqli va o'xshash jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: farzandlikka olish, farzand asrab oluvchi, farzandlikka olingan bola, "Avesto", Hammurabi qonunlari, Islom tarixi, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N49>

Kirish. Farzandlikka olish instituti — jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi eng qadimgi huquqiy institutlardan biridir. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mazkur institut davlatchilik va huquq tizimlari shakllanishidan avval ham mavjud bo'lib, dastlab urug' va qabilaning biologik yashovchanligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bugungi kunda ushbu institutni isloh qilishda uning tarixiy ildizlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Farzandlikka olish huquqning eng qadimiy institutlaridan biri bo'lib, ko'p asrlik tarixiy rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. Xususan, "Avesto" davrida, Qadimgi Bobil va Rimda ham mavjud bo'lib, o'sha davrlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan.

Xalqimizning boy tarixi, madaniyati, urf-odati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Kishilik jamiyatida dastlabki ijtimoiy munosabatlar urf-odat va an'analar, diniy tarbiya asosida tartibga solingan.

Farzandlikka olish to'g'risidagi qonunchilikning rivojlanish tarixini tizimli ravishda oltita asosiy bosqichga bo'lib o'rganish masalaning mohiyatini atroflicha va to'g'ri tahlil etish imkonini beradi.

1- bosqich - ilk davrlar. (milloddan avvalgi 3000 yilgacha)

2-bosqich - qadimgi sivilizatsiyalar davri. (meloddan avvalgi 3000- melodiy 500 yillar)

3-bosqich - o'rta asrlar. (500-1500 yillar)

4-bosqich - yangi davr. (1500-1800 yillar.)

5-bosqich - sovet davri (1917-1991).

6-bosqich -mustaqillik davri (1991 yil - hozirgi kun)

1. Ilk jamoa davrida farzandlikka olish amaliyoti asosan qondoshlikka emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy zarurlarga bog'liq bo'lgan, oilada yordamchi kuchlar yetishmasligi sababli yetim bolalarni o'z qaramog'iga olishgan. Farzandlikka olish amaliyoti asosan rasmiy qonunlarga emas, balki an'analar va urf-odatlariga asoslangan.

Qadimgi jamoa tuzilmalarida bolalar jamoaning umumiy mulki sifatida qaralgan. Yetim qolgan bolalar qo'shni qavm yoki qavmdoshlar tomonidan qabul qilingan. Bu asosan jamoaning ijtimoiy birligini va mehnat quvvatini saqlab qolishga qaratilgan.

Ilk davrlarda farzandlikka olish ko'proq jamiyatning manfaatlari va o'ziga xos an'analari bilan bog'liq bo'lib, huquqiy asosga ega bo'lmagan.

Masalan, Qadimgi Misrda yetim qolgan bolalarga g'amxo'rlik qilish jamiyatning diniy burchi deb qaralgan. Mahalliy oilalarda yetim bolalarni o'z oilalarga qabul qilish holatlar ko'p kuzatilgan.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyatini, qisman tarixini o'rganishda eng qadimgi yozma manbalardan biri bu "Avesto" bo'lib, unda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi tarixi, turmushi, urf-odatlari, dinlari, ma'naviyati haqida juda ko'p ma'lumotlar berilgan. "Avesto" miloddan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan va eng so'nggi tahriri milodiy VI asrda tugallangan.

"Avesto"da - farzand to'g'risida ham ko'rsatilgan bo'lib, unda tarbiyali bola eng avvalo intizomli bo'lishi, intizom esa barcha ezgu ishlarning asosi ekanligiga ular ishonishgan. Shu sababli, farzandlarining mehnat malakasini oshirishga, ularga hunar o'rgatishga jiddiy e'tibor berishgan. Bolalarning tarbiyasi yoshligidan yo'lga qo'yilmasa, katta bo'lganidan keyin uni o'zgartirish mushkul, bolani yosh niholligidan ehtiyotkorlik bilan parvarishlash kerak degan g'oya asosida harakat qilingan [1].

2. Qadimgi sivilizatsiyalar davrida Qadimgi Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy, Rim va Yunoniston kabi davlatlar shakllangan.

Yozma qonunlar, jumladan farzandlikka olishni tartibga soluvchi normalar paydo bo'lib, farzandlikka olish huquqiy asosga ega bo'la boshlagan.

Masalan, Qadimgi Misrda farzandlikka olish ko'proq oilaviy munosabatlarni va ijtimoiy barqarorlikni saqlash maqsadida amalga oshirilgan. Bolalar diniy burchlarini bajarish uchun ham farzandlikka olingan. Oilaning naslini davom ettirish muhim ahamiyat kasb etgan. Oilaning boyligi farzandlikka olingan shaxs orqali saqlab qolingan. Farzandlikka olingan bola oilaning barcha huquq va burchlarini qabul qilgan. Misrda farzandlikka olish jarayonida bolalarga e'tibor va g'amxo'rlik qilish diniy burch hisoblangan.

Qadimgi Vavilonda (Bobil) farzandlikka olish Hammurapi qonunlari bilan tartibga solingan.

Bobil podshosining Xammurapi qonunlari - farzandlikka olish haqidagi dastlabki qonuniy hujjat hisoblangan. Unda agar biror kishi bolani asrab olsa va uni tarbiyalasa, bu asrab olingan bolani qaytarib olib bo'lmasligi, biror kishi farzand asrab olsa va uni qabul qilganidan keyin (asrab olingan) otasini yoki onasini xafa qilsa, bu asrab olingan bola (haqiqiy) otasining uyiga qaytarilishi, hunarmand farzand asrab olib, unga o'z hunarini o'rgatsa, uni qaytarishni talab qilib bo'lmasligi, bitta holatda agar unga o'z hunarini o'rgatmasa, bu asrab olingan o'g'il haqiqiy otasining uyiga qaytishi mumkinligi, biror kishi farzand asrab olib, uni farzandlari bilan tenglashtirmasa, bu asrab olingan bola haqiqiy otasining uyiga qaytishi mumkinligi, farzand asrab olgan kishi uni tarbiyalasa, keyin o'z oilasini qurib, farzand ko'rgan bo'lsa, farzandlikka olingan bolani rad etish niyati bo'lsa, bu bola quruq qo'l bilan ketmasligi kerakligi, farzandlikka oluvchi unga ko'char mulkidan meros ulushining uchdan bir qismini berishi shartligi, daladan, bog'dan va uydan unga hech narsa berishga majbur emasligi belgilangan [2].

O'sha davrda farzandlikka olishdan maqsad avlodni davom ettirish, meros olish, oilada tarbiya topish hamda uy ishlarida qo'shimcha ishchi kuchiga ega bo'lish bo'lgan.

Qadimgi Hindistonda farzandlikka olish diniy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan. Farzandlikka olish asosan avlodlarning diniy vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan. Yer va mol-mulkni saqlab qolish uchun ham farzandlikka olish qo'llanilgan.

Qadimgi Xitoyda naslni davom ettirish juda muhim sanalgan. Agar erkak kishi farzandsiz bo'lsa u avlodini saqlab qolish uchun farzandlikka olishga majbur bo'lgan. Ajdodlarga ibodat qilish Xitoy madaniyatida muhim rol o'ynagan. Farzand ota-bobolar ruhiga ibodat qiluvchi hisoblangan. Farzandlikka olish asosan avlodlarning nasliy uzluksizligini va ibodatning uzluksizligini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Yer va mulkni saqlab qolish uchun farzandlikka olish ko'p qo'llanilgan. Avlodlarning meros huquqi kafolatlangan.

Qadimgi Rimda farzandlikka olish (adoptio) keng tarqalgan huquqiy institut bo'lgan. Uning asosiy maqsadi oilaning naslni davom ettirish va meros huquqini ta'minlashga qaratilgan. Farzandlikka olish qonun bilan tartibga solingan va u rasmiy kelishuv orqali amalga oshirilgan. Oilaning boshlig'i (pater familias) farzandlikka olish haqida qaror qabul qilgan. Farzandlikka olingan shaxs o'z oilasidagi barcha huquq va burchlardan voz kechib, yangi oilaga to'liq qo'shilgan. Farzandlikka olingan shaxs yangi oilada to'la huquqli vorisi bo'lgan [3].

Bundan tashqari, farzandlikka olish ota hokimiyatining o'rnatilishi va qarindoshlik munosabatlarning vujudga kelishi asosi sifatida qaralgan [4].

Qadimgi Gresiyada farzandlikka olish shaxsiy va siyosiy sabablarga ko'proq bog'liq bo'lgan. Yer va mol-mulkni saqlab qolish uchun farzandlikka olish keng qo'llanilgan. Aksariyat hollarda yetim bolalar emas, balki yetarlicha boy va imkoniyati cheklangan shaxslar farzandlikka olingan. Afina qonunlarida farzandlikka olish rasmiy tartiblarga muvofiq amalga oshirilgan. Farzandlikka olingan shaxs yangi oilada meros huquqiga ega bo'lgan.

Qadimgi sivilizatsiyalar davrida farzandlikka olishning asosiy maqsadi ijtimoiy barqarorlikni saqlash, meros huquqini ta'minlash va avlodlarni davom ettirishdan iborat bo'lgan. Har bir sivilizatsiya o'z huquqiy va madaniy an'analarga ko'ra farzandlikka olish institutini shakllantirgan.

3. O'rta asrlarda Yevropa va Sharq davlatlarida din farzandlikka olishga katta ta'sir ko'rsatgan. Farzandlikka olish amaliyoti jamiyatning diniy, madaniy va siyosiy jarayonlari bilan yaqindan bog'liq bo'lgan. Bu davrda farzandlikka olishning huquqiy va ijtimoiy tartiblari turli mintaqalarda ayniqsa, Yevropa, Islom olami va Osiyoda, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan.

Yevropada oʻrta asrlarda cherkovning taʼsiri oilaviy munosabatlar va farzandlikka olish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Xristianlik koʻplab jamiyatlarda oilaning muqaddas instituti sifatida qaralgan. Farzandlikka olish amaliyoti cherkov qoidalari asosida amalga oshirilgan. Katolik cherkovi farzandlikka olingan shaxslarning ota-onasi bilan bogʻliq aloqalarini cheklashga harakat qilgan.

Farzandlikka olishdan maqsad avlodlar naslini davom ettirish, mol-mulkni saqlab qolish va meros huquqini taʼminlash, yetim bolalarni himoya qilish va ularga taʼlim tarbiya berish boʻlgan. Farzandlikka olish jarayoni huquqiy asosga yoki uning aniq qoidalariga ega boʻlmagan. Baʼzi hollarda farzandlikka olish xususiy kelishuvlar orqali amalga oshirilgan.

Islom olamida farzandlikka olish amaliyotiga alohida yondoshuvni shakllantirgan. Unda bolaning oʻz ota-onasi bilan nasabiy aloqasi ustuvor ahamiyatga ega boʻlgan. Shariat qoidalari islom qonunchiligida farzandlikka olish (tabanniy) man etilgan, chunki bolaning nasabi va qonlik aloqalari muhim hisoblangan. Bolaning oʻz biologik ota-onasining ismi va meros huquqi saqlanib qolingan. Bunday hollarda homiylik qilish (kafolatga olish-kafala) targʻibot qilingan. Farzandlikka olishdan maqsad yetim bolalarni qoʻllab quvvatlash, jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni taʼminlash, bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat boʻlgan. Yetim bolalarga taʼlim berish va ularni iqtisodiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash keng tarqalgan. Kafala tizimi orqali bolalarning moddiy ehtiyojlari qondirilgan [5].

Osiyoda oʻrta asrlar davrida farzandlikka olish madaniy va diniy anʼanalar bilan bogʻliq boʻlgan. Hindistonda farzandlikka olish diniy vazifalarni bajarish uchun keng qoʻllanilgan. Oilaning merosini saqlab qolish asosiy sabablardan biri boʻlgan. “Manu qonunlari”ga koʻra farzandlikka olingan shaxs oʻz ota-onasi bilan qonunan bir xil huquqlarga ega boʻlgan [6].

Xitoyda Konfutsiy taʼlimotlari farzandlikka olish jarayoniga kuchli taʼsir koʻrsatgan. Avlodlarning nasliy uzviyligini taʼminlash muhim ahamiyat kasb etgan. Farzandlikka olingan shaxs jamoaning ijtimoiy iqtisodiy barqarorlarini saqlashga qaratilgan.

4. Yangi davr XVI-XVIII asrlar oraligʻidagi tarixiy bosqich boʻlib, bu davrda davlatlar markazlashgan, huquqiy tizimlar takomillashgan va farzandlikka olish instituti huquqiy asosga ega boʻla boshlagan. XVIII-XIV asrlarda Yevropa va Amerika davlatlarida farzandlikka olish instituti qayta tiklangan va huquqiy meʼyorlar bilan tartibga solina boshlagan.

Fransiyada XVI-XVIII asrlarda farzandlikka olish tizimi ancha cheklangan. Farzandlikka olish faqat katta yoshdagi shaxslarga nisbatan amalga oshirilgan. Farzandlikka olish asosan mulk va meros masalalari bilan bogʻliq boʻlib, boylar oʻz nomini davom ettirish uchun vasiylik asosida farzand qabul qilgan.

Farzandlikka olishni davlat tomonidan qonuniylashtirgan birinchi muhim qonunlardan biri bu Napoleon kodeksi boʻlgan. Kodeks 21.03.1804-yilda Fransiyaning birinchi konsuli Napoleon Bonapart tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan boʻlib, unga koʻra faqat 50 yoshdan katta va oʻzining bolalari yoʻq shaxslar farzandlikka olishi mumkinligi, farzandlikka olingan shaxs kamida 25 yoshda boʻlishi lozimligi, farzandlikka olish faqat sud qarori bilan rasmiylashtirilishi, farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotganning roziligi talab qilinishi, farzandlikka olingan shaxs biologik ota-onasi bilan huquqiy aloqalarini yoʻqotmasligi va farzandlikka oluvchining merosidan toʻliq foydalana olmasligi, farzandlikka olish faqat asoslar boʻlganda sud orqali bekor qilinishi mumkinligi belgilangan [7].

Angliyada farzandlikka olish instituti rasman XVI-XVIII asrlarda huquqiy asosga ega boʻla boshlagan.

Angliya qarorlari huquqi (Common Law) bo'yicha farzandlikka olish ancha cheklangan va asosan vasiylik shaklida amalga oshirilgan.

XVI asrda Tyudorlar davrida (Genrix VIII va Yelizaveta I hukmron-ligida) meros va oila masalalari qattiq nazoratga olingan, lekin farzandlikka olish keng tarqalmagan.

XVIII asrda Angliyada yetim bolalar uchun maxsus panohgohlar va maktab-internatlar tashkil etilgan, lekin farzandlikka olish hali rasmiy huquqiy institut sifatida qabul qilinmagan.

Rossiya imperiyasida farzandlikka olish tizimi pravoslav xristian an'alariga asoslangan va davlat siyosati orqali shakllangan.

Pyotr I (1682-1725) davrida davlat homiylikka olish tizimini rivojlantirgan va askarlar oilalarida tarbiyalanishi uchun yetim bolalarni joylashtirish amaliyoti joriy etilgan.

XVIII asrda Yekaterina II bolalarni vasiylikka olish va yetimlarga ta'lim berish tizimini shakllantirgan.

Rasmiy farzandlikka olish tizimi XIX asrda to'liq qonuniylashtirilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) XVI-XVIII asrlarda Amerikada farzandlikka olish tizimi yevropadagi huquqiy tizimlarga asoslangan, lekin rasmiy qonunlar mavjud bo'lmagan. 1800-yillarga kelib birinchi marta farzandlikka olish qonunlari ishlab chiqila boshlangan. 1851-yilda ilk bor farzandlikka olishni huquqiy tartibga solgan rasmiy qonun Massachusetts (farzandlikka olish qonuni) qabul qilindi. Massachusetts shtati AQShda birinchi bo'lib farzandlikka olishni huquqiy asosga ega qilgan davlat sifatida tarixga kirgan. Bu qonun farzandlikka olishni bolaning manfaatlarini himoya qilish prinsipiga asoslangan holda rasmiylashtirgan ilk qonun hisoblanadi. Unga ko'ra, farzandlikka olish sud orqali amalga oshirilishi, bolaning manfaatlari asosiy mezon sifatida qabul qilinishi, bolaning biologik ota-onasi tirik bo'lsa, ulardan rozilik olish talab etilishi, agar bola ma'lum bir yoshdan katta bo'lsa u ham farzandlikka olishga rozi bo'lishi kerakligi, farzandlikka oluvchi shaxs ma'lum moliyaviy barqarorlikka va yaxshi xulq-atvoriga ega bo'lishi kerakligi, sud farzandlikka olishga ruxsat berishdan oldin ota-onalik qobiliyatini baholashi, farzandlikka olingan bola farzandlikka oluvchining to'liq merosxo'ri bo'lishi hamda biologik ota-onaning bolaga bo'lgan barcha huquqlari bekor qilinishi belgilangan [8].

5. Sovet ittifoqida farzandlikka olish huquqiy jihatdan tartibga solingan bo'lib, bolalar huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan. Ushbu davrda farzandlikka olish siyosati turli ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarga mos ravishda o'zgargan.

RSFSRning 16.12.1918-yilda e'lon qilingan "Fuqarolik holati, nikoh, oila va vasiylik to'g'risida"gi qonunlar kodeksida farzandlikka olish ilk bor huquqiy jihatdan tartibga solingan. Farzandlikka olish jamoaviy manfaatlariga va bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan va sud orqali farzandlikka olish talabi qo'yilgan. Bundan asosiy maqsad bolalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'lgan.

G.Vershininaning ta'kidlashicha, farzandlikka olishni taqiqlash Sovet huquqiy hujjatlari tomonidan Kodeksning qabul qilinishi davrida hali ham mavjud bo'lgan kichik burjua elementlari tomonidan asrab olish niqobi ostida voyaga yetmagan bolalarni ekspluatatsiya qilish imkoniyatining oldini olish zarurati bilan talqin etilgan bo'lib, inqilobning dastlabki yillarida sinfiy kurashning va bu davrda sinfiy kuchlarning birlashishi bilan bog'liq bo'lgan [9].

Tarixiy sharoitlar tufayli farzandlikka olishni taqiqlash vaqtinchalik bo'lgan. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va RSFSR Xalq Komissarlari Kengashining 1924-

yildagi qarori bilan Sovet qonunchiligi tarixida birinchi marta farzandlikka olishga ruxsat berilgan.

Unda “Fuqarolik holati dalolatnomalari to‘g‘risidagi qonunlar kodeksi” ning 183-moddasiga amal qilish Turkiston Respublikasining tub aholisiga taalluqli emasligi va ularda farzandlikka olish urf-odat bo‘yicha amalga oshirilishi belgilangan. Turkistonning tub aholisi uchun ushbu farmon bilan bolalarni asrab olishga ruxsat etilganligini sababi Turkiston Respublikasida fuqarolar urushi, xorijiy intervensiya, bosmachilik harakati va yangi iqtisodiy siyosat sharoitida ota-onasiz va qarovsiz qolgan bolalar sonining sezilarli darajada oshganligi bilan bog‘liq edi [9].

O‘rta Osiyo xalqlari orasida farzandlikka olish tartibi juda oddiy bo‘lgan. Farzandlikka olish fakti - qarindoshlari, do‘stlari, qo‘ni-qo‘shnilari ishtirokida og‘zaki e‘lon qilingan, hech qanday maxsus marosim yoki yozma hujjatlarsiz amalga oshirilgan. Ushbu e‘lon bilan farzandlikka olish huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan, zarur hollarda farzandlikka olish dalolatnomasi ko‘rsatuvlar bilan tasdiqlangan.

Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1926-yil 19-noyabrdagi qarori bilan farzandlikka olish to‘g‘risidagi birinchi qonun – “Nikoh, oila va vasiylik to‘g‘risidagi qonunlar Kodeksi” qabul qilingan va unda davlat siyosati emas, bola manfaati ustuvorligi belgilangan [10].

Biroq, unda farzandlikka olishni ro‘yxatga olish tartibi farzandlikka olish sirini saqlash uchun mo‘ljallanmagan. Bolaga farzandlikka oluvchining familiyasi va otasining ismi berilishi mumkin bo‘lsa-da, farzand asrab oluvchilar FHDYo organida farzandlikka olish guvohnomasida farzandlikka olingan bolaning ota-onasi sifatida emas, balki farzandlikka oluvchilar sifatida qayd etilgan [11].

SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 08.09.1943-yildagi Farmoni bilan farzand asrab oluvchilarning iltimosiga binoan ular farzandlikka olingan bolaning ota-onasi sifatida tug‘ilishni qayd etish kitoblarida qayd etilishi, agar bola o‘n yoshga to‘lgan bo‘lsa faqat uning roziligi bo‘lganda yo‘l qo‘yilishi mumkinligi belgilandi.

O‘zbekiston SSR tarkibida bo‘lgan davrda farzandlikka olish masalalari sovet qonunchiligi asosida tartibga solinardi. 1926-yilda qabul qilingan Oila kodeksi va keyinchalik qabul qilingan boshqa hujjatlarda bolalarni farzandlikka olish tartiblari belgilangan. Bu davrda bolalar uylari va internatlar asosiy vosita sifatida foydalanilgan. Oilalarning bolalarni farzandlikka olish imkoniyatlari cheklangan.

Urush davrida ko‘plab bolalar yetim qolgan. Bolalarni asrab olish masalalari davlat nazoratiga olingan. Farzandlikka olish jarayoni soddalashtirilgan, bu oilaning barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Ota-ona bolani asrab olishda o‘z moliyaviy va tarbiyaviy imkoniyatlarini ko‘rsatishi kerak edi. Urushdan keyin davlat bolalar uylari va internat tizimini kengaytirdi, farzandlikka olish imkoni bo‘lmagan hollarda bolalar davlat himoyasida qoldirildi.

Urush yillarida O‘zbekistonga 200 mingdan ortiq bolalar SSSRning turli hududlaridan evakuatsiya qilingan. Xorazm viloyatiga 1941-yilning bir necha oyi ichida keltirilgan 4617 nafar bolaning 1160 nafari 15 yoshgacha bo‘lib, ular darhol oilalarga farzandlikka olingan. Samarqand shahrida esa 206 nafar bola oilalarga tarbiyalash uchun topshirilgan, 56 oila esa, bolalarni o‘z tarbiyasiga olish maqsadida ariza topshirgan. Buxoro viloyatida 1942-yilning mart oyigacha 1029 nafar bola, Toshkent viloyatida 643 nafar bola oilalar tomonidan tarbiyaga olingan [12].

1942-yil 2-yanvarda Toshkent shahrida xotin-qizlarning yig'ilishida yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olishga da'vat etilgan respublika ayollariga murojaat qabul qilingan. O'zbekiston rahbarlaridan U.Yusupov va Y.Oxunboboevlar oilasi ham yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olgan. Toshkentlik temirchi usta Sh.Shomahmudov va B.Akramovalar oilasi turli millatga mansub 14 bolani, urushdan nogiron bo'lib kelgan Kattaqo'rg'onlik X.Samatov oilasi 13 bolani, Samarqandlik kolxozchi ayol F.Kosimova oilasi 10 bolani farzandlikka olgan [13].

Taniqli huquqshunos olim F.M.Otaxo'jaev o'z kitobida, O'zbekistonda rus, o'zbek, qozoq, qirg'iz, yahudiy, tatar, moldovan va boshqa millatlarning bolalarni o'z bag'riga olib tarbiyalagan oilalar ko'p bo'lgan, bulardan biri 14 farzandni bag'riga olib katta qilgan temirchi Sh.Shomahmudov va uning rafiqasi B.Akramovalarni misol qilib ko'rsatgan [14].

20.09.1968-yilda "SSSR va Ittifoq Respublikalar nikoh va oila qonunchiligi Asoslari" qabul qilingan. Unda bolalar huquqlarini himoya qilish uchun yangi mexanizmlar joriy etilgan. Farzandlikka olishning barcha jarayonlari sud tomonidan qat'iy nazorat qilinib, bolalarning oila muhitida tarbiyalanishiga ustivor ahamiyat berilgan.

Kodeksning 24-moddasida, asrab olingan bolalar va ularning farzandlari farzandlikka oluvchilar va ularning qarindoshlariga nisbatan, farzandlikka oluvchilar va ularning qarindoshlari farzandlikka olingan bolalar va ularning avlodlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlari bo'yicha teng ekanligi, farzandlikka olish - bolani farzandlikka olmoqchi bo'lgan shaxsning arizasiga ko'ra davlat organi - xalq deputatlari tuman-shahar Kengashi ijroiya qo'mitasining qarori bilan amalga oshirilishi belgilangan. Yana bir o'zgarishlardan biri, birinchi marta farzandlikka olishning siri tutilishi qonun bilan mustahkamlangan [15].

6. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin bolalar huquqlarini himoya qilish va farzandlikka olish institutini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayon xalqaro me'yorlar va tamoyillarga muvofiq amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (08.12.1992 y.) bolalar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

O'zbekiston BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasini 1992 yilda ratifikatsiya qildi. Bu mamlakatning farzandlikka olish sohasida xalqaro standartlarni joriy etishga intilganligini ko'rsatdi.

01.09.1998-yildan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida farzandlikka olishning tartibi va shartlari aniq belgilandi, farzandlikka olingan bolalarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilina boshlandi. Kodeksning 20-bob, 22 ta (151-172-moddalar) moddasi farzandlikka olishga bag'ishlangan bo'lib, unda farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga ko'ra, vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshirilishi, qaror chiqarilgandan keyin o'n kun ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari farzandlikka olingan bolaning tug'ilishi qayd etilgan daftariga zarur o'zgartirishlar kiritishi lozimligi belgilandi [16].

07.01.2008-yilda qabul qilingan "Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni farzandlikka olish masalalariga oid huquqiy asoslarni mustahkamladi. Bolalar uylari va internatlarni kamaytirishga qaratilgan siyosat olib borildi. Muhtoj bolalar uchun oilaviy muhitda tarbiyalanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlar yo'lga qo'yildi.

2013-yilda elektron bazalar va ro'yxatga olish tizimi joriy qilindi. Farzandlikka olish jarayoni shaffoflashdi. Bitta oila tomonidan bir nechta bolani farzandlikka olish tartibi yengillashtirildi.

30.04.2013-yilda Oila kodeksiga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra farzandlikka olishning sud tartibi joriy qilindi. Ya'ni, farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga ko'ra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosiligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to'g'ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshirilishi belgilandi [17].

Shu bilan birga Fuqarolik protsessual kodeksiga farzandlikka olish bilan bog'liq alohida 31¹-bob kiritildi va alohida tartibda yuritiladigan ishlar toifasiga kiritildi.

Oila va Fuqarolik protsessual kodeksiga shu kunga qadar farzandlikka olish bilan bog'liq normalariga 2016, 2021, 2022-yilda uch marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Xususan, Oila kodeksiga 23.09.2016-yilda "Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olish bilan bog'liq 161¹-modda bilan to'ldirildi. Fuqarolik protsessual kodeksining 298-moddasi 2-qismiga shu bilan bog'liq jumla kiritildi.

Oila kodeksining 152-moddasiga 21.10.2021-yilda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, qasddan sodir qilgan jinoyat turlari aniq ko'rsatildi, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar, shu jinoyatlarni sodir etganlik uchun o'ziga nisbatan jinoyat ishi ayblilik to'g'risidagi masala hal qilinmay turib tugatilganlar, farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar, farzandlikka olinuvchining yaqin qarindoshlari tomonidan farzandlikka olishda yosh farqi bilan bog'liq cheklov qo'llanilmasligi belgilandi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 300-moddasiga 14.03.2022-yilda identifikatsiyalovchi ID-kartasining ko'chirma nusxasi arizasi ilova qilishi mumkinligi bilan bog'liq jumla kiritildi.

Yosh bolalarni farzandlikka olishda talabgorlarning psixologik va ijtimoiy tayyorgarligini baholash mexanizmi kuchaytirildi.

2020 yildan xalqaro farzandlikka olish tartibi takomillashtirildi, yetim bolalarni oilaviy tarbiyaga joylashtirish dasturi kuchaytirildi.

Farzandlikka olish instituti har bir davrning ijtimoiy, iqtisodiy, siysiy hayoti bilan bog'liq holda tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tib, jamiyatning taraqqiy etib borishi hisobiga rivojlanib bordi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda farzandlikka olish institutining tarixiy rivojlanishi vakolatli organlarning maqomi va huquqiy himoya darajasining izchil oshib borishi bilan tavsiflanadi.

Ilgari mazkur jarayon vasiylik va homiylik organlari, ijroiya qo'mitalari yoki tuman (shahar) hokimlarining ma'muriy qarorlari asosida amalga oshirilgan bo'lsa, 2013 yildan boshlab farzandlikka olishning faqat sud tartibida belgilanishi sohadagi tub burilish nuqtasi bo'ldi.

Farzandlikka olish vakolatining sudlarga o'tkazilishi inson huquqlarini himoya qilishning eng oliy kafolati bo'lib, "Oila — jamiyat va davlat muhofazasida" degan konstitutsiyaviy tamoyilning amaldagi ifodasidir.

Ma'muriy tartibdan sud tartibiga o'tilishi farzandlikka olish jarayonida nafaqat hujjatlarning rasmiy muvofiqligini, balki bolaning kelajakdagi hayoti, uning ma'naviy va moddiy manfaatlari sud majlisida har tomonlama va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

Ushbu islohot O'zbekistonning xalqaro huquq normalariga, xususan, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablariga to'liq sodiqligini va bola huquqlarini himoya qilishning zamonaviy, demokratik mexanizmini yaratganini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, farzandlikka olish institutining ma'muriy tizimdan sud tizimiga evolyusiyasi - mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash va oila institutini huquqiy jihatdan mustahkamlash yo'lidagi eng samarali qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatuya/References:

1. Homidov X. "Shoxnomaning shuhrati" ..O'zbekiston"-1991.-93-96 b. www.ziyouz.com.kutibxonasi.
2. Hammurabi qonunlari. Asl. Akkad. Tarjimasi nashr etilgan 1914 yil..Manba: Wikimedia Commons-da joylashtirilgan 185-194-bandlari. www.ziyouz.com.kutibxonasi.
3. Rim huquqi darslik. Topildiev V. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2013 y. www.ziyouz.com.kutibxonasi.
4. O'sha darslik. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2013 y. www.ziyouz.com. kutibxonasi.
5. Yusupov N. Huquq va burch. 2008 №6. 37-b. www.ziyouz.com. kutibxonasi.
6. Manu qonunlari.
7. 21.03.1804 г. Гражданский кодекс Франции. (Кодекс Наполеона).
8. Мартынов Н. Узаконение и усыновление детей (закон 12 марта 1891) с разъяснениями и образцами бумаг. - СПб., 1896. С. 54
9. "Процессуальные особенности судопроизводства по делам усыновления" Вершинина Г - Саратов 2007. <http://diss.natlib.uz>
10. 19.11.1926. Nikoh, oila va vasiylik to'g'risidagi qonun Kodeksi.. <http://www.czechlegislation.com>
11. "O'zbekistonda FXDYo idoralari dastlabki faoliyatining qayd etilishi". X.Tillaxodjaeva Journal of Social Research in Uzbekistan
12. "O'zbekistonga SSSRdan ko'chirilgan xalqlar taqdiri". Amirdinov J.A "Fan tarixi rivojiga akademik A.R.Muhammadjonovning qo'shgan hissasi" to'plami. nashr sanasi: 30.10.2020 yil.betlari: 94-97 .
13. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Hamidov H., Ernazarov Sh., Raxmonov B. Toshkent-2021
14. Oila va qonun Otaxo'jaev F -T.1983 y. 29-b. www.ziyouz.com. kutibxonasi.
15. "Процессуальные особенности судопроизводства по делам усыновления" Вершинина Г - Саратов 2007. <http://diss.natlib.uz>
16. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 30.04.1998 y. <https://www.lex.uz>
17. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonuni. 30.04.2013 y. O'RQ-352. O'R QHT, 2013 y., 18-son, 233-modda

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).